


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA  
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor,  
professor A.A.Elmuurodov  
2025 yil

**60840400 – VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI TA’LIM YO‘NALISHINI  
2025-2026 O‘QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN “IXTISOŠLIK” FANLARIDAN  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SAVOLLARI**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**  
**Veterinariya diagnostikasi va oziq ovqat xavfsizligi fakulteti 60840400 – Veterinariya sanitariya**  
**ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarini 2025-2026 o'quv yili "Ixtisoslik" fanlaridan Yakuniy**  
**Davlat Attestatsiyasi savollari**


**II. Umumkasbiy fanlar:**

№	Fanlar nomi	Raqami
1.08	Laboratoriya ishi asoslari	1-15
1.13	Hayvonlar fiziologiyasi	16-27
1.14	Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi	28-38
1.17	Veterinariya virusologiyasi	39-50
1.18	Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi	51-62
1.21	Patologik anatomiya, gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi	63-74
1.23	Veterinariya ishini tashkil etish va qonunchiligi	75-88

**III. Ixtisoslik fanlari:**

№	Fanlar nomi	Raqami
1.24	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	89-128
1.25	Parazitologiya va invazion kasalliklar	129-168
1.26	Tovarshunoslik, biologik xavfsizlik va tovarlar ekspertizasi	169-218
1.29	Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar	218-259
1.30	Go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	260-300

Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti dekani



E.E.Kurbanov

**Tuzuvchilar:**

Veterinariya sanitariya ekspertizasi kafedrası mudiri, dotsent

F.B.Ibragimov

Parazitologiya kafedrası mudiri, professor

A.S.Daminov

Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedrası mudiri, professor v.b

R.F.Ruzikulov

Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrası mudiri, professor

N.B.Dilmuradov

Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya kafedrası mudiri, dotsent

N.O.Farmonov

Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası mudiri, dotsent

D.D. Aliyev

Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar kafedrası mudiri, katta o'qituvchi

A.N. Xudjamshukurov

**Taqrizchilar:**

**Niyozov X.B.** – Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti dekani, professor

**Qo'chqorova S.Q.** - Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi laboratoriya mudiri, veterinariya fanlari doktori

**Veterinariya diagnostikasi va oziq ovqat xavfsizligi fakultetda taxsil olayotgan  
60840400 Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalariga  
ixtisoslik fanlaridan**

**Davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun savollar.**

1. Laboratoriya ishi asoslari fanining roli va ahamiyatini so'zlab bering?
2. Veterinariya laboratoriyalarining asosiy vazifalarini ayting?
3. Mehnatni muhofaza qilish tizimi nimalardan iborat?
4. Viloyat veterinariya laboratoriyalarida qanday bo'limlar mavjud va ular nima vazifani bajaradi?
5. Laboratoriyada uskunalar va qurilmalar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi nimadan iborat?
6. Baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam qanday ko'rsatiladi?
7. Oziq muhitlari nima uchun ishlatiladi, so'zlab bering?
8. Kuyishning qancha darajasi bor va kuyishlarda qanday choralar ko'riladi?
9. Laboratoriya idishlarini tozalashning qanday fizikaviy usullarini bilasiz?
10. Gistologik tadqiqotlar uchun ishlatiladigan uskuna va qurilmalarning asosiy turlari qanday?
11. Umumiy laboratoriya texnikasi qaysi guruhlariga bo'linadi?
12. Laboratoriya idishlarni tozalash uchun qanday kimyoviy moddalarni bilasiz?
13. Laboratoriya texnikasi qanday yo'nalishlarga tasniflanishi mumkin?
14. Termostat qaysi maqsadda va nima uchun ishlatiladi?
15. Avtomatik analizatorlar nima vazifani bajarishini aytib bering?
16. Qonning himoya vazifasini tushuntiring (fagotsitoz, antitelolar, agglyu-tininlar, sitolizinlar, bakteriolizinlar, presipitinlar, antitoksinlar, properdin sistemasi, lizotsim).
17. Qon, limfa va to'qima oraliq suyuqligining tarkibi, vazifalari va ahamiyati (shaklli elementlar, plazma, qon zardobi, transport, himoya, termoregulyatsiya, korrelyatsiya, gomeostaz).
18. Qon plazmasi va qon zardobining tarkibi, ular o'rtasidagi farqlar (albuminlar, globulinlar, fibrinogen, mineral moddalar, qonning oqsil indeksi va ahamiyati).
19. Qonning reaksiyasi, buferligi, osmotik va onkotik bosimlarini tushuntiring (muhiti, atsidoz, alkaloz, gemoglobin, karbonat va fosfat bufer sistemalari, plazma oqsillari).
20. Qonning shaklli elementlari, ularning ahamiyati va sanash texnikasi (eritrotsitlar, leykotsitlar, trombositlar vazifasi, miqdori, eritrotsitoz, eritropeniya, leykotsitoz, leykopeniya, trombositoz, trombopeniya, Goryaev sanoq to'ri, melanjerlar, eritmalar, yopqich shisha, mikroskop.).
21. Qon aylanish sistemasi haqida tushuncha (katta va kichik qon aylanish doiralari, yurak, arteriyalar, venalar, kapilyarlar, arterial va venoz qon).
22. Yurakning tuzilishi, ish fazalari va faoliyatining tashqi ifodalarini tushuntiring. (Yurak bo'lmalari va qorinchalari, tabaqali va yarim oysimon klapinlar, yurakning ish sikli, sistola, diastola, umumiy pauza, puls, yurak tonlari-tovushlari va zarbi-turtkisi).
23. Yurak muskullarining xususiyatlari (qo'zg'aluvchanlik, o'tkazuvchanlik, refrakterlik, avtomatiya va biotoklar hosil qilish).
24. Yurak faoliyatining neyro-gumoral yo'l bilan boshqarilishi (simpatik va adashgan nerv, adrenalin, tiroksin, simpatin, asetilxolin, Ca va K ionlari, taxikardiya, bradikardiya, aritmiya).
25. Qonning tomirlardagi harakatini ta'minlovchi omillar va qonning oqish tezligi (gidrodinamika, gemodinamika, bosim, yurakning ishi, muskul-larning qisqarishi, vena tomirlari ichidagi kapilyarlar, ko'krak qafasidagi manfiy bosim).
26. Nafas jarayoni va uning bosqichlari (nafas organlari, tashqi nafas, gazlarning qon bilan tashilishi, ichki nafas).
27. O'pkaning nafas jarayonidagi ahamiyati, tiriklik va umumiy sig'imi (nafas, qo'shimcha, rezerv, qoldiq va alveola havolari, spirometr, spirometriya).
28. Mikrobiologiyaning qisqacha rivojlanish tarixi (A.V.Levenguk (1632-1723), morfologik, L.Paster (1822-1895), R.Kox (1843), D.I.Ivanovskiy (1864), fiziologik rivojlanish davr, I.I.Mechnikov, L.S.Senkovskiy).
29. Patogenlik, virulentlik. Ularning o'lchov birligi (infektivlik, invazivlik, toksigenlik, kapsula, DLM, zararlovchi doza, letal doza).
30. Infeksiyaning kelib chiqishida mikroorganizmlarning roli (patogenligi, virulentligi, infektivlik, invazivlik, toksigenlik, kapsula).
31. Patmaterial olish va laboratoriyaga jo'natish qoidalarini ayting (qo'zg'atuvchini tarqalishini oldini olish, maxsus idish, konservantlar, yo'llanma).

32. Mikroorganizmlarning tabiatda moddalar almashinuvidagi roli (azot, uglerod aylanish, bijg'ishlar)
33. Mikroorganizmlarga tashqi muhit omillarining ta'siri (fizikaviy, kimyoviy, biologik).
34. Kultura, shtamm, koloniya, klonlarga tushuncha bering
35. Patogen va shartli patogen mikroorganizmlarga izoh bering
36. Superinfeksiya, reinfeksiya, oddiy va aralash infeksiyalarga tarif bering
37. Mikroorganizmlarning ko'payish bosqichlarini ketma-ketlikda izohlang
38. Identifikatsiyalashda mikroorganizmlarni qanday xususiyatlari o'rganiladi
39. Yirik shoxli hayvonlarni o'lat kasalligini qaysi kasalliklardan farqlash zarur? (oqsil, yomon sifatli kataral va isitma misolida)
40. Ot rinopnevmoniyasini tashxislash uchun qanday ma'lumotlardan foydalaniladi? (Laboratoriya usuli, biosinov, IFA)
41. Buzoqlardagi pnevmoenteritning klinik va patologoanatomik va serologik usullarda aniqlanishi qanday ahamiyatga ega (klinik belgilari, IFA)
42. Quturish kasalligiga gumonsiralgan hayvonlardan qanday material olinadi va ishlashdagi qoidalar nimalardan iborat.
43. Laboratoriyada oqsil kasalligiga diagnoz qo'yishning qanday usullarini bilasiz?
44. Virusologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari. (D.I.Ivanovskiyning 1892 yildagi yaratgan yangiliklari).
45. Tashqi muhitning qanday faktorlariga viruslarning chidamliligi o'rganilgan. (Qizdirish, UBN, efir va boshqa kimyoviy moddalar).
46. Makroorganizmlarga viruslarning kirish yo'llari qanday. (Adsorbtsiyadan boshlab virusni hujayradan chiqish bosqichigacha).
47. Viruslarning tropizmi nimadan iborat. (Dermatrop, pievmatrop, enterotrop, neyrotrop, pantrop viruslar).
48. Virus kiritma tanachalari nima va ularni qanday uchratish mumkin. (Virionlarning to'plami Babesh-Negri, Borrel, Bollinger, Zeyfred, Lentsa).
49. Laboratoriya hayvonlarining organizmida viruslarni ko'payish belgilari qanday bo'ladi.
50. DNK va RNK saqlovchi viruslarning bir-biridan farqi?
51. O'smalar, etiologiyasini tushuntiruvchi nazariyalar, turlari va patanatomiyasi (kanserogen, dizontogenetik, polietiologik, fibroma, lipoma, sarkoma, adenoma, karsinoma, atipizm, stroma, parenxima).
52. Nafas va hazm organ kasalliklarining etiologiyasi, patogenizi va patomorfologiyasi (emfizema, atelektaz, pnevmoniya, invaginatsiya, kolik, ximostaz, koprostaz).
53. Sepsis, etiologiyasi, turlari va patanatomiyasi (kokli, kindikli, yarali, urosepsis, qon quyulishlar, distrofiya).
54. Pasterellyoz kasalligining etiologiyasi, patogenezi, tashxisi va qiyosiy tashxisi (qoramollar, qo'ylarda kechish shakillari).
55. Nyukasla kasalligi, etiologiyasi, patogenezi, tashxisi va qiyosiy tashxisi (qon quyulishlar, giperplaziya, kataral yiringli kolit, o'lat, salmonellez, pasterellez).
56. Krupoz pnevmoniya, etiologiyasi, bosqichli rivojlanishi va patanatomiyasi (giperemiya, qizil, kulrang jigarlanish, fibrinli, xajmi, rangi, konsistensiyasi, kesilgan yuza, lizis).
57. O'lim va uning turlari. O'lim tufayli gavdada sodir bo'ladigan o'zgarishlar (tabiy, kilinik, biologik, zo'raki, sovish, qotish, dog'larning hosil bo'lishi va chirish).
58. Parrandalar pasterellezi, etiologiyasi, patogenezi, patanatomiyasi, tashxisi va qiyosiy tashxisi (o'tkir, surunkali, difteritik yallig'lanish, kataral ekssudat, pnevmoniya, enterokolit, saramas, o'lat).
59. Umumpatologik o'zgarishlar. Nekroz, atrofiya va distrofiyalarning patanatomiyasi (nekrobioz, bilvosita, bevosita, umumiy va patologik atrofiya, jog', oqsil, uglivod, mineral moddalar distrofiyasi).
60. Qo'ylarning chehagi, etiologiyasi, patanatomiyasi, patanatomik tashxisi va qiyosiy tashxisi (pustula, vezikula, rozeola, papula).
61. Tuberkulyozning organopatologiyasi, o'pkada, zardobli pardalarda, yelinda, jigarda patanatomik o'zgarishlar (asinoz, lobulyar, lobar, miliar, mastit).
62. Qorasonning etiologiyasi, patogenezi, patanatomiyasi, tashxisi va qiyosiy tashxisi.

63. Dori moddalarning farmakodinamikasi va farmakokinetikasi. (Dorilarning ta'sir joylari, dorilarni organizmga yuborish yo'llari).
64. Dorilarni organizmga yuborish yo'llari (peroral, parenteral, ingalyasion) ularning ta'sir tezligi va samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi? (Farmakokinetika - so'rilish va taqsimlanish bosqichlari)
65. Dori moddalarning farmakokinetik bosqichlari (so'rilish, taqsimlanish, biotransformatsiya, ekskresiya) hayvon turiga, yoshiga va oziqlanish holatiga qarab qanday farq qiladi? (Spetsifik farmakokinetik xususiyatlar)
66. Dorilar o'zaro ta'siri (sinergizm va antagonizm) klinik natijaga qanday ta'sir ko'rsatadi? (Kombinatsion terapiyada farmakodinamik muvofiqlik)
67. Markaziy asab tizimini susaytiruvchi moddalar. (Narkoz chaqiruvchi moddalar, tinchlantiruvchi va qaltiroqqa qarshi moddalar, tana haroratini tushiruvchi va analgetiklar).
68. Markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi moddalar. (Antidepressantlar, kamfora guruhi preparatlari, kofein guruhi preparatlari).
69. Oshqozon va ichaklarga ta'sir etuvchi moddalar. (Surgi dorilari to'g'risida qisqacha tushuncha. Ruminator moddalar. O't haydovchi moddalar).
70. Yurak va qon tomir tizimiga ta'sir qiluvchi moddalar. (Yurak glikozidlari, ta'sir mexanizmi).
71. Diuretik dori vositalarining farmakodinamikasi va buyrak nefronida ta'sir qilish mexanizmini izohlang. (Nefron segmentlari bo'yicha natriy va suv reabsorbtsiyasi mexanizmi).
72. Vitaminlar o'rtasida antagonistik va sinergik o'zaro ta'sir qanday yuz beradi? (Suvda va yog'da eruvchi vitaminlar farmakologiyasi)
73. Immunostimulyator moddalarning organizmda fagotsitoz jarayonini faollashtirishdagi roli qanday? (Immunostimulyator va immunomodulyator vositalar)
74. Ferment preparatlari hayvonlarda hazm jarayonlarini yaxshilashda qanday biokimyoviy asosga ega? (Fermentlarning farmakodinamik xususiyatlari)
75. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi (tarkibiy qismlari, hududiy boshqarmalar, bo'limlar)?
76. Davlat veterinariya xizmatini boshqarish (Idoraviy, ishlab chiqarish va xususiy veterinariya xizmati)?
77. Veterinariyada hisobga olish va hisob-kitob hujjatlari (veterinariya hisobot shakllari, ish yuritish)?
78. Veterinariyada yuritiladigan jurnal shakllari?
79. Veterinariyada to'g'risidagi qonun, qonun osti hujjatlari (Farmon, qaror, buruqlar, farmoyishlar)?
80. Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi (birkalash, jetonlash, tamg'alsh, elektron chip)?
81. Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari (haqiqiy va oldi olingan zarar)?
82. Veterinariya tadbirlarini rejalashtirishning ahamiyati, prinsplari, rejalarning turlari (istiqboliy, joriy, tezkor rejalar)?
83. Veterinariya profilaktik va epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasi?
84. Yuqumli kasalliklarni aniqlash va uni tugatish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish (cheklov va karantin tadbirlari)?
85. Veterinariya-sanitariya nazorati va uni tashkil qilish tartibi (maxsus veterinariya-sanitariya nazorati muassasalari)?
86. Veterinariya ishi tashkil etish va uning mazmuni (davlat xo'jalik tadbirlari, hayvonlar kasalliklarini oldini olish, davolash ishi)?
87. Xususiy veterinariya xizmatini tashkil qilish tartibi ("Veterinariya to'g'risida"gi qonunning 17-moddasi, Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilar)?
88. Veterinariya qonunchiligini buzgan shaxsga tegishli qonunchilik hujjatlari bo'yicha qo'llaniladigan jazo turlari (Mamuriy javobgarlik, Jinoiy javobgarlik to'g'risidagi kodeks)?
89. Go'sht korxonalari va so'yiladigan hayvonlarni dastlabki qayta ishlashning asosiy texnologiyasi va gigiyenasi. (go'sht korxonasi, qushxona va so'yish punktlari, xushsizlantirish va qonsizlantirish, so'yilgan hayvon tanasini qayta ishlash)
90. Go'shtning morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tovarliligi. (turli hayvonlar go'shtini morfologik tuzilishi, go'shtni yetilishi va unga ta'sir qiladigan omillar, hayvonlar go'shtini navlarga ajratish)

91. Yuqumli kasalliklarda veterinariya-sanitariya ekspertizasi.(kuydirgi kasalligi, tuberkuloz, brutsellyozlarda so'yishdan oldin va keyin diagnoz qo'yish, maxsulotlarni sanitariya jixatidan baholash)
92. Invazion kasalliklarda veterinariya-sanitariya ekspertizasi.(qoramol va cho'chqa sistiserkozi, exinokokkozda mahsulotlarni sanitariya jixatdan baholash)
93. Trixinellyozda go'shtni veterinariya sanitariya jixatdan baholash.(kasallik qo'zg'atuvchisi, diagnoz, go'sht va shpigni tekshirish tartibi.)
94. Zaxarlangan hayvonlardan olingan mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi.(so'yishdan oldin va keyin diagnoz qo'yish, olingan go'sht va mahsulotlarni sanitariya jixatdan baholash)
95. Majburiy so'yilgan hayvonlardan olingan mahsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertizasi.(so'yish mumkin bo'lmagan holatlar, organoleptik, biokimyoviy, mikroskopik tekshirish)
96. Go'shtni saqlashda sodir bo'ladigan o'zgarishlar va ularni bartaraf etish usullari.(zagar, shilimshiqlanish, mog'orlanish, shartli yaroqli go'shtni zararsizlantirish)
97. Parrandalar go'shti va tuxumining veterinariya sanitariya ekspertizasi.(ichki va tashqi qonsizlantirish, parranda go'shti koteqoriyalari, tuxumni klassifikatsiyasi, kimyoviy tarkibi, tekshirish tartibi)
98. Baliq va baliq mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.( Baliqlar tanasiga ishlov berish va saqlash, baliqni tuzlash, dudlash va konserva tayyorlash)
99. Go'sht va go'sht mahsulotlarini konservatsiyalash texnologiyasi, gigiyenasi va ekspertizasi.(konservatsiyalash, past va yuqori xaroratda konservatsiyalash usullari)
100. Go'shtdan tayyorlangan konservalarni tekshirish usullarini ayting.(konservalarni tekshirish usullari, biokimyoviy, bakteriologik, kimyo toksikologik)
101. Kolbasa va dudlangan mahsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertizasi. (go'sht mahsulotlarini tuzlash, dudlash, dudlangan mahsulotlarni saqlash, taxlash va tashish, organoleptik tekshirish)
102. Qishloq xo'jalik hayvonlarini so'yishdan keyin olingan xom ashyo mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.(yog'lar kalla poycha, qon va ichaklarni qayta ishlash)
103. Hayvonlardan olinadigan yog'larni ekspertizasi.(yo'lardan namuna olish, tekshirish, patologik sariqlikni aniqlash,)
104. Sut tovar fermalarida sutni sanitariya gigiyenik talablari va kimyoviy tarkibi.(sutni olish gigiyenasi va sutni fermalarda dastlabki qayta ishlash, sutni tashish va undagi kamchiliklar, sutni ekspertizasi, kimyoviy tarkibi va komponentlari)
105. Kasal hayvonlar sutini veterinariya sanitariya ekspertizasi.(mastit, brutsellyozda sutni tekshirish tartibi, veterinariya sanitariya ekspertizasi)
106. O'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.(o'simlik oziq-ovqat mahsulotlaridan namuna olish, organoleptik tekshirish, nitrat miqdorini aniqlash)
107. Asalni organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha baholash, gul nektari va shira asalni aniqlash.(asal va uning ko'rsatkichlari, asalni veterinariya sanitariya ekspertizasi, gul nektaridan va shiradan olingan asalni farqlash, tekshirish tartibi)
108. Soxtalashtirilgan asalni aniqlash usullari.(qiyom aralashmasini aniqlash, kislotaliligini aniqlash, diastoz sonini aniqlash, aralashmalarni aniqlash.)
109. Asalni organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha baholash (Organoleptik tekshirish usuli yordamida asalni rangi, xushbo'yliigi, ta'mi va konsistentsiyasini aniqlash)
110. Veterinariya-sanitariya nazorati va uni tashkil qilish?
111. Bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarida yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
112. Ixtisoslashtirilgan go'sht korxonalarida ish jarayonini tashkillashtirish va bajariladigan ishlar.
113. Go'shtni yangiligini aniqlash (organoleptik va laboratoriya usullarida)
114. Kasal hayvonlarni go'shtini aniqlash
115. Go'shtdan tayyorlangan konservalarni tekshirish
116. Hayvonlardan olinadigan yog'larni ekspertizasi
117. Sutni tozaligi va kislotaliligini aniqlash
118. Sut mahsulotlarini tekshirish (qatiq, tvorog, pishloq, brinza)
119. Shartli yaroqli go'sht va go'sht mahsulotlarini zararsizlantirish usullari

120. Buzoq, cho'chqa va quyonna tanasini qayta ishlash.
121. Limfa sistemasi va uning go'sht ekspertizasidagi ahamiyati.
122. Sutda mikroorganizmlar miqdorini aniqlash
123. Sutdagi yog' miqdorini aniqlash
124. Go'shtni qaysi hayvon turiga mansubligini aniqlash
125. Kolbasani veterinariya sanitariya ekspertizasi.
126. Baliqni organoleptik tekshirish usuli yordamida yangiligini aniqlash bunda (tangachalariga, shilliq modda bilan qoplanishi, ko'zini holati, jabrasining rangi va hidi).
127. Tovuq tuxumini tekshirish usullarini (tashqi tomondan ko'rish, ovoskop yordamida tekshirish)
128. Zaharlangan hayvonlarning go'shtini odam uchun xavfliligi va oziq-ovqat sifatida yaroqsizligi.
129. Parazitologiya faniga izoh bering, biologiya, tibbiyot va veterinariya fanlari bilan chambarchas bog'liqligi (zooparazitologiya, tibbiyot parazitologiyasi, agroparazitologiya).
130. Parazitologiya fanini rivojlanishida O'zbekistonlik olimlarning qo'shgan hissasi.
131. Paramfistomatozga ta'rif bering (qo'zg'atuvchining morfologiyasi, biologiyasi, klinik belgilari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
132. Gelmintozlarga tashxis qo'yish usullarini ta'riflang (epizootologik, klinik, gelmintokoprologik, patologoanatomik, to'liq va notuliq gelmintologik tekshirish).
133. Dicroseliozni ta'riflang. (asosiy, oraliq, qo'shimcha xo'jayinlari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
134. Qoramol va cho'chqa sistitserkozini ta'riflang (epizootologiyasi, biologiyasi, keltiradigan zararlari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
135. Exinokokkozga ta'rif bering (qo'zg'atuvchisi, patogenezi, klinik belgilari, oldini olish chora-tadbirlari).
136. Senuroz (qo'zg'atuvchisi, epizootologiyasi, klinik belgilari, oldini olish chora-tadbirlari).
137. Exinokokkoz va senurozga qarshi kurashishda olib boriladigan tadbirlar majmuasi qanday amalga oshiriladi.
138. Moneziozga ta'rif bering (qo'zg'atuvchining morfologiyasi, biologiyasi, klinik belgilari, tashxis qo'yish, davolash va oldini olish).
139. Moniezia expansa va Moniezia benedenilarning morfologik va biologik farqi nimada (oldini olish tadbirlari).
140. Otlarning anoplotsefalidozlariga ta'rif bering (klinikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
141. Cho'chqa askaridoziga ta'rif bering. (qo'zg'atuvchisi, biologiyasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
142. Otlarning paraskaridiozi (qo'zg'atuvchisi, tarqalishi, davolash va oldini olish)
143. Parranda askaridozi (qo'zg'atuvchisi, tarqalishi, davolash va oldini olish).
144. Go'shtxo'r hayvonlarning askaridatozi, toksokaroz. (morfologiyasi, biologiyasi davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
145. Otlarning oksiuroziga tavsif bering (xarakterli belgilari, davolash va oldini olish).
146. Otlarning hazm organlari Stronglyatozlari (morfologiyasi, biologiyasi davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
147. Kavshovchi hayvonlarning oshqazon-ichaklarida strongilyatlarining nechta oila vakillari parazitlik qilib, qanday kasalliklar keltirib chiqaradi.
148. Trixostrongilidlardan qaysi avlod vakillari ko'proq uchraydi.
149. Gemonxozga ta'rif bering (qo'zg'atuvchisi va uning biologik rivojlanishini ta'riflang).
150. Chabertia ovinaning tuzilishi, biologiyasini tashxis qo'yish, davolash va oldini olish.
151. Qo'y va echki diktiokaulyozi ta'riflang (qo'zg'atuvchisi biologiyasi davolash va oldini olish).
152. Telyaziozga ta'rif bering (qaysi kasalliklardan farqlash kerak).
153. Qoramol va qo'ylar fasselioziga ta'rif bering. (qo'zg'atuvchisi, morfologiyasi, biologiyasi, davolash va oldini olish).
154. Qoramol piroplazmoziga ta'rif berib, qo'zg'atuvchisining tuzilishi, biologiyasi va tashuvchi kanallari haqida ma'lumot bering.

155. Teylerioz va piroplazmoz kasalligini tarqatuvchi kanallarni ta'riflang (kanalarga qarshi kurash).
156. Trematodoz, sestodoz va nematodozlarni bir-biridan farq qiluvchi belgilar.
157. Otlarning piroplazmoziga ta'rif bering (klinik belgilari, davolash usullari).
158. Parranda eymerioziga ta'rif bering (klinik belgilari, davolash va oldini olish usullari).
159. Tripanosomoz kasallik qo'zg'atuvchisining sistematik holati, morfologik tuzilishi va rivojlanishini tushuntirib bering.
160. Qoramollarning trixomonoz kasalligiga ta'rif bering (qo'zg'atuvchisi, davolash va oldini olish).
161. Akarforum va parazitoforum kanalariga ta'rif bering (asosiy vakillari, chaqiradigan kasalliklari).
162. Psoroptes, Sarcoptes va Chorioptes avlodlariga mansub kanalarning tuzilishi va biologik xususiyatlarini tushuntirib bering.
163. Itlarning demodekoz kasalligiga ta'rif bering.
164. Gipodermatozni ta'riflang (qo'zg'atuvchining morfologiyasi, biologiyasi, klinik belgilari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
165. Estrozni ta'riflang (qo'zg'atuvchining morfologiyasi, biologiyasi, klinik belgilari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari).
166. Gastrofilus avlodiga mansub bo'kalarining sistematik holati, morfologik tuzilishi va biologiyasini tushuntirib bering.
167. Qon so'ruvchi qanotsiz hasharotlar va ular tomonidan keltirib chiqaradigan melofagoz kasalligiga ta'rif bering.
168. Qon so'ruvchi qo'sh qanotli hasharotlar va qon so'ruvchi qanotsiz hasharotlarning asosiy farqi nimada.
169. Oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibiga nimalar kiradi? (oqsil, yog', uglevod, suv, mineral)
170. Mahsulotdagi oqsillarning asosiy biologik roli nimada? (aminokislotalar, to'qima qurilishi)
171. Konservatsiyalashning maqsadi nima? (buzilishning oldini olish)
172. Issiqlik bilan konservatsiya usuli qanday amalga oshiriladi? (sterilizatsiya, pasterizatsiya)
173. Tovarining iste'mol qiymatini belgilovchi omillar nimalar? (tashqi ko'rinish, ta'm, hid)
174. Saqlash jarayonida mahsulot chiqimlari nimalarga bog'liq? (namlik, harorat, havo almashinuvi)
175. Tovarlarini kodlashda shtrix-kod nima uchun qo'llanadi? (identifikatsiya, kuzatuv)
176. Organoleptik baholashda qaysi belgilar inobatga olinadi? (ta'm, rang, hid, konsistensiya)
177. Don mahsulotlarining tovarlik xususiyatlari qanday belgilanadi? (nav, tozaligi, namligi)
178. Baliq mahsulotlarini saqlashda qaysi usul eng samarali hisoblanadi? (muzlatish, tuzlash)
179. Tuxumning yangiligini qanday aniqlash mumkin? (ovoskop, suvga solib sinash)
180. Asalni soxtalashtirishning asosiy usullari nimalar? (shakar, kraxmal, sirop qo'shish)
181. Meva va sabzavotlarni saqlashda haroratning roli qanday? (nafas olish jarayoni, chirish)
182. Yog'larning sifatini belgilovchi kimyoviy ko'rsatkichlar nimalar? (kislotalilik, peroksid soni)
183. Sutning tabiiyligini qanday aniqlash mumkin? (suyultirish testi, zichlik o'lchovi)
184. Go'shtdagi asosiy oziqaviy moddalarning nisbati nimani belgilaydi? (nav, to'yimlilik)
185. So'yishdan oldingi diagnostika nima uchun muhim? (kasallik, zaharlanishni aniqlash)
186. Go'shtni veterinariya-sanitariya jihatdan baholashda nimalarga e'tibor beriladi? (patologoanatomik, laboratoriya natijalari)
187. Donlarning sifatini aniqlashda qaysi usullar qo'llaniladi? (namlik, ifloslik, un berish)
188. Nonning sifati qanday organoleptik belgilar bilan aniqlanadi? (rang, hidi, tuzilma)
189. Meva va sabzavotlarni saralashda asosiy mezonlar nimalar? (o'lcham, rang, pishganlik)
190. Quritilgan mevalarda saqlanishga ta'sir qiluvchi omillar nimalar? (namlik, havo, harorat)
191. Yog'larning sifat ekspertizasi nimalarni o'z ichiga oladi? (kislotalilik, tozaligi, hid)
192. Kraxmalni sifat jihatidan aniqlash qanday amalga oshiriladi? (yod sinovi, rangi)
193. Shakarni sifatini baholashda qanday ko'rsatkichlar olinadi? (rangi, eruvchanligi, tozaligi)
194. Sut mahsulotlarining sifati qanday belgilanadi? (kislotalilik, yog' miqdori)
195. Pishloqlarning sifat ekspertizasi nimalarga asoslanadi? (tuz miqdori, hidi, tuzilishi)
196. Baliq konservalarining sifati qanday tekshiriladi? (idish butligi, ta'm, hidi)

197. So'yilgan hayvon go'shtini navlarga ajratish qanday amalga oshiriladi? (tana tuzilishi, yog' miqdori)
198. Qoramol go'shtini maydalashda qaysi usul ishlatiladi? (sovutilgan holda maydalash)
199. Go'shtning yangiligini aniqlashda qaysi belgilar muhim? (rang, hidi, konsistensiya)
200. Muzlatilgan go'shtning sifati qanday belgilanadi? (muz kristallari, rangi)
201. Kalla-poycha mahsulotlarida nimaga e'tibor beriladi? (teri rangi, shilliq qavat holati)
202. Kolbasa mahsulotlarini turlarga ajratish mezonlari nimalar? (tarkibi, issiqlik bilan ishlov)
203. Kolbasaning sifati qanday baholanadi? (kesimi, hidi, tuzilma)
204. Dudlangan mahsulotlarda sifat ko'rsatkichi nimaga bog'liq? (tutun miqdori, namlik)
205. Tuxumning sifati qanday tekshiriladi? (ovoskop orqali ko'rish)
206. Tuxum mahsulotlari ekspertizasi qanday amalga oshiriladi? (mikrobiologik tahlil)
207. Sut mahsulotlarining sifati aniqlashda qaysi laborator usullar qo'llaniladi? (kislotalilik, yog')
208. Sigir sutidan ajratilgan yog' sifati qanday baholanadi? (ko'rsatkich: kislotalilik soni)
209. Quruq sut sifati qanday belgilanadi? (rang, eruvchanlik, hidi)
210. Baliqning anatomo-morfologik tuzilishi nimani o'z ichiga oladi? (go'sht, suyak, teri)
211. Tuzlangan baliq sifati aniqlashda nimaga e'tibor beriladi? (tuz miqdori, rangi, hid)
212. Muzlatilgan baliqning sifati qanday baholash mumkin? (muz kristallari, rangi, ta'm)
213. Dudlangan baliq mahsulotlarining sifati qanday aniqlanadi? (tutun darajasi, rangi, hidi)
214. Ildiz mevalar sifati qaysi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi? (rang, qattqlik, shikastlanish)
215. Poliz mahsulotlarining sifat ekspertizasi qanday amalga oshiriladi? (shakar miqdori, tashqi ko'rinish)
216. Tuzlangan mahsulotlarning sifati nimaga bog'liq? (tuz miqdori, kislotalilik)
217. Asalni tabiiyligi qanday aniqlanadi? (reaktivlar bilan sinov, qovushqoqlik)
218. Qalbakilashtirilgan asalning asosiy belgilarini sanang. (siyraklik, cho'kmalar, shirinlik turi)
219. Epizootologiya fanining predmeti va vazifalari.
220. Epizootologiya fani qaysi (biologiya, tibbiyot va veterinariya) fanlar bilan uzviy bog'liq.
221. Epizootologiya fanining rivojlanishida o'z hissalarini qo'shgan Respublikamiz olimlari va ularning ishlari.
222. Epizootiyaga qarshi kurash (karantin va cheklov) tadbirlari.
223. Infeksiya va infeksiyon kasalliklar.
224. Epizootik jarayon va uni harakatlantiruvchi kuchlar, epizootik o'choq, epizootik manba, tarqalish mexanizmi.
225. Epizootik jarayonning rivojlanish qonuniyatlari va epizootiyaning bosqichlari.
226. Infeksiyon kasalliklarda laboratoriyaviy tekshirish uchun patologik material olish va uni jo'natish qoidalari.
227. Infeksiyon kasalliklarning (umumiy va maxsus) profilaktikasi.
228. Antigenlar va ularning immunogenligi.
229. Infeksiyon kasalliklarda allergik tekshirish usullari.
230. Patogenlik va virulentlikga tushuncha bering.
231. Dezinfeksiya va uning vazifalari. Dezinfeksiya turlari, ob'ektlari, usullari, vositalari.
232. Dezinseksiya va uning vazifalari. Dezinseksiya usullari, vositalari.
233. Deratizatsiya va uning vazifalari.
234. Nosog'lom xo'jaliklarda karantin va cheklov tadbirlarini tashkil etish.
235. Kuydirgi kasalligi va unga qarshi kurash tadbirlari
236. Qorason kasalligi epizootologiyasi va oldini olish choralari
237. Qotma kasalligi epizootologiyasi va kasallikka qarshi kurash tadbirlari
238. Qo'ylarning bradzot kasalligi, epizootologiyasi, umumiy va maxsus profilaktikasi
239. Infeksiyon enterotoksemiya epizootologiyasi va kasallikka qarshi kurash tadbirlari
240. Xo'jaliklarni tuberkulyozdan sog'lomlashtirish chora-tadbirlari
241. Brusellyoz klinik belgilari, patogenezi, tashxis va qarshi kurash
242. Oqsil kasalligini tarqalishi va unga qarshi kurash tadbirlari
243. Quturish kasalligi epizootologiyasi va profilaktikasi
244. Auyeski kasalligi epizootologiyasi va differensial diagnostikasi
245. Pasterellyoz va unga qarshi kurash tadbirlari
246. Temiratki kasalligi va unga qarshi kurash tadbirlari

247. Qoramollarning nodulyar dermatit kasalligi epizootologiyasi
248. Izolyatorlar, Izolyator tuzilishi va unga bo'lgan talablar
249. Brusellyoz qo'zgatuvchilari, epizootologiyasi va diagnostikasi
250. Otlarning manqa kasalligi allergik diagnostikasi
251. Yosh hayvonlar salmonellyozini diagnostikasi, davolash va profilaktikasi
252. Yosh hayvonlar kolibakteriozini diagnostikasi, davolash va profilaktikasi
253. Parrandalarning Nyukasl kasalligi profilaktikasi va serologik diagnostikasi
254. Parrandalarning laringotraxeit kasalligida patanatomik o'zgarishlar va klinik belgilari
255. Parrandalar pullorozida differensial diagnostikasi
256. Go'shtxo'r hayvonlarni o'lat kasalligini epizootologiyasi va diagnostikasi
257. Nekrobakteriozni davolash va olidini olish tadbirlari
258. Chechak kasalligi epizootologiyasi, patogenezi va maxsus profilaktikasi
259. Infektsion bronxit kasalligini profilaktikasi va diagnostikasi
260. Zaharlangan hayvonlardan olinadigan go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatdan baholash (so'yishdan oldingi diagnoz, patologoanatomik o'zgarishlar, laboratoriya tekshirish usullari).
261. Parranda go'shtining oziq-ovqatlilik qiymatini aytib bering?
262. So'yiladigan hayvonlar tanasini dastlabki qayta ishlaydigan korxonalar va ularga bo'lgan sanitariya gigiyenik talablar (go'sht korxonasining tuzilishi, turlari).
263. So'yiladigan hayvonlar tanasini dastlabki qayta ishlash (xushsizlantirish, qonsizlantirish, tanadan teri, ichki organlarni ajratish va tozalash).
264. Go'shtning morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tovarligi (go'shtning morfologik tuzilishi, go'shtning kimyoviy tarkibi, tana go'shtini navlarga ajratish).
265. Zaharlanishlarda parranda go'shtining veterinariya sanitariya ekspertizasini aytib bering?
266. Go'shtni yetilishida kechadigan biokimyoviy jarayonlar (go'shtning qotishi, yetilishi, autoliz jarayonlari).
267. Yuqumli kasalliklarda olinadigan go'shtni veterinariya-sanitariya ekspertisasi (kuydirgi, sil va brutsellyoz kasalliklarida olingan go'shtni veterinariya sanitariya jihatdan baholash).
268. Go'sht yo'nalishidagi parranda zotlari haqida ma'lumot bering?
269. Go'sht va go'sht mahsulotlarini konservatsiyalash va veterinariya-sanitariya ekspertisasi (go'sht mahsulotlarini saqlashni uzaytirish, past va yuqori haroratda konservatsiyalash usullari, konserva mahsulotlarini tekshirish).
270. Parranda go'shti tarkibidagi oqsillar qanday biologik ro'l o'ynaydi?
271. Yuqumsiz kasalliklarda tana go'shti va organlarni veterinariya-sanitariya ekspertisasi (stomatit, travmatik perikardit, peritonit).
272. Quyon go'shti iste'molchi uchun qanday afzalliklarga ega?
273. Qoramol go'shtining ta'mi va tuzilmasiga ta'sir qiluvchi omillar.
274. Parrandalarni qayta ishlash uchun veterinariya va sanitariya talablarini aytib bering?
275. Qoramol go'shti qanday holatda iste'molga yaroqsiz deb topiladi.
276. Parranda go'shtini qayta ishlovchi korxonalarda veterinariya nazorati.
277. So'yiladigan qishloq xo'jalik hayvonlarini so'yishga tayyorlash.
278. Qoramol go'shtining morfologik xususiyatlari.
279. Uy va yovvoyi quyonlar go'shti haqida tushuncha.
280. Uy va yovvoyi parrandalar go'shti haqida tushuncha.
281. Qoramol go'shtining rangi, hidi, tuzilmasi bo'yicha qanday baho beriladi?
282. Qoramol go'shtini qayta ishlashda sanitariya gigiyena qoidalari.
283. Qoramol go'shtidan tayyorlangan kolbasa mahsulotlari qanday turlarga bo'linadi?
284. So'yishdan oldin parrandalarda qanday tekshirishlar o'tkaziladi.
285. Hayvonlarni tashish usullari va ularga qo'yiladigan talablar qanday.
286. Organlarida patanatomik o'zgarishlarni aniklash tartibi (teri osti klechatkasi, parenximatoz organlar).
287. Hayvonlarni so'yish uchun tashishda qanday hujjatlar talab qilinadi?
288. Qoramol tana go'shtini saqlash muddati qanday?
289. Invazion kasalliklarda parranda go'shti qanday tekshiruvdan o'tkaziladi.
290. Parrandalarning tana go'shtini qonsizlantirish usullari.
291. Sifatli go'shtning umumiy belgilari.

292. Parrandalarni so'yish va tanasini dastlabki qayta ishlashda veterinariya-sanitariya nazorati? (so'yish, qonsizlantirish, tanasini tozalash, parrandalar go'shtni veterinariya-sanitariya eksretizasi).
293. Mol, qo'y, cho'chqa va boshqa turdagi hayvon go'shtlaridan tayyorlangan kolbasa mahsulotlarining ekspertizasi.
294. Hayvonlar go'shtini iste'molga chiqarishdan oldin qanday tekshiruvlardan o'tkaziladi?
295. 1-toifadagi va 2-toifadagi tovuqlarning tana go'shtlariga qanday talablar qo'yiladi?
296. Go'shtning morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tovarliligi (go'shtning morfologik tuzilishi, go'shtning kimyoviy tarkibi, tana go'shtini navlarga ajratish).
297. Kolbasa mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi? (ishlab chiqarish texnologiyasi, organoleptik ko'rsatgichlari, laboratoriya tekshirish usullari).
298. So'yiladigan hayvonlar tanasini dastlabki qayta ishlash (xushsizlantirish, qonsizlantirish, tanadan teri, ichki organlarni ajratish va tozalash).
299. Turli hayvonlar go'shtini qanday qilib aniqlash mumkin?
300. Invazion kasalliklarda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi? (trixinellyoz, sistitserkoz, exinokokkoz).

**Fakultet dekani**



**F.E.Kurbanov**